



Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi




# 2022- yil yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi



**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.



2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 013,2 mlrd so'mga** yetib, uning nominal hajmi **497,3 mlrd so'mga** oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,4 %ni** tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-aprel oylarida)





# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, %da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3 013,2</b>	<b>112,4</b>
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	163,5	122,1
Moliyaviy xizmatlar	632,3	122,5
Transport xizmatlari	664,1	112,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>616,7</i>	<i>108,3</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	51,3	106,5
Savdo xizmatlari	803,4	108,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	86,9	107,6
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	130,2	99,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	63,1	112,0
Ijara xizmatlari	54,2	86,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	122,8	111,6
Shaxsiy xizmatlar	101,1	108,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	55,4	105,2
Boshqa xizmatlar	84,9	122,1



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

**Nisbatan yuqori ko'rsatkich**

### Nisbatan past ko'rsatkich



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar



Ijara xizmatlari



Yashash va ovqatlanish xizmatlari

Savdo xizmatlari

26,7 %

Transport xizmatlari

22,0%

Moliyaviy xizmatlar

21,0 %

Aloqa va axborotlash - tirish xizmatlari

5,4 %

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

4,3 %

Kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari

4,1 %

Shaxsiy xizmatlar

3,4 %



## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2022- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **26,7 %**ni tashkil etdi.

Kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,8 %ga** yetgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida savdo xizmatlarining ulushi umumiyligi hajmda **26,6 %**ni tashkil etgan. 2021-yilning shu davrida kompyuterlar va uy-ro'zg'or buyumlarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik bo'lgan – **1,7 %**.


2022- yil yanvar-aprel oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**22,5%**), boshqa xizmatlar (**22,1%**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**22,1 %**), transport xizmatlar (**12,6 %**) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarida (**12,0 %**) qayd etildi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida ijara xizmatlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan (163,5 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (238,0 %) o'sish kuzatilgan.

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, % da



2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yil yanvar-aprel oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **26,7 %**ni tashkil etdi, bu esa **803,4 mlrd so'mga** to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **669,1 mlrd so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **26,6 %ga** to'g'ri kelgan.

2021- y.  
yanvar-aprel  
Xizmatlar hajmi  
669,1 mlrd so'm

O'sish sur'ati  
117,6 %

Ulushi  
26,6 %

### Savdo xizmatlari



2022- y.  
yanvar-aprel  
Xizmatlar hajmi  
803,4 mlrd so'm

O'sish sur'ati  
108,2 %

Ulushi  
26,7 %

2022- yil yanvar-aprel


Dastlabki ma'lumotlar

2022- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo xizmatlarining ulushi umumiyl savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtadan uch qismini, aniqrog'i **77,4 %**ini tashkil etdi.


## Savdo xizmatlari tarkibi

(2022- yil yanvar-aprel oylarida)

Avtomobillar  
va mototsikllar ulgurji  
va chakana savdosiga,  
jumladan, ularni  
ta'mirlash xizmatlarini  
qo'shgan holda



Ulgurji savdo  
xizmatlari  
(avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari)



Avtomobillar  
va mototsikllar  
savdosidan  
tashqari chakana  
savdo bo'yicha  
xizmatlar



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida chakana savdo ulushi **77,5 %**ga yetgan.

2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingen foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

## Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-aprel oylarida)



Moliyaviy xizmatlar hajmi **632,3 mlrd so'mni** tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning hajmi **514,0 mrd so'mga** teng bo'lган.

2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi **21,0 %ni** tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi **20,4 %ni** tashkil etган.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmini **118,3 mlrd so'mga** ko'payishi kuzatildi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sishi **122,5 %ni** tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida ularning o'sish sur'ati **126,9 %ga** yetgan.



## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi



### 2022- yil yanvar-aprel

### Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **89,9 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,0 %** oralig'ida qayd etildi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-aprel oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmining **91,5 %**ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan. Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,2 %**ga to'g'ri kelgan.

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-aprel oylarida)

**2021- y.  
yanvar-aprel**

132,2  
mlrd so'm

117,8 %

5,3 %

**2022- y.  
yanvar-aprel**

163,5  
mlrd so'm

122,1 %

5,4 %





## Xorazm viloyati statistika boshqarmasi




**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, **94,1 %**ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

**2021- y. yanvar-aprel**



**2022- y. yanvar-aprel**



Telekommunikatsiya xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-aprel oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **95,5 %**ga yetgan.

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

## Ta'lim sohasidagi xizmatlar

**117,8  
mlrd so'm**

**Ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi**

**130,2  
mlrd so'm**

**2021- y.  
yanvar-  
aprel**



**2022- y.  
yanvar-  
aprel**

**119,9 %**

**O'sish sur'atlari, % da**

**99,6 %**

2022- yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **130,2** mlrd so'mga yetib, bozor xizmatlari umu-miy hajmidagi ulushi **4,3** %ni tashkil etdi. 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,6** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-aprel oylarida xizmatlar hajmi **117,8** mlrd so'mga teng bo'lgan. 2020- yilga nisbatan o'sish **119,9** % darajasida qayd etilgan.

2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlataligan va qayta ishlamanagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Xizmatlar hajmi,  
mlrd so'm

42,1

51,3

2021- y.  
yanvar-aprel

2022- y.  
yanvar-aprel



O'sish  
sur'ati, % da

119,2

106,5

2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **9,2** mlrd so'mga ortdi.



2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

81,2 %

2022- y. yanvar-aprel

18,8 %

18,1 %

81,9 %

2021- y. yanvar-aprel



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash  
bo'yicha xizmatlar

Yashash bo'yicha xizmatlar

2022- yil yanvar-aprel oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,2 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2021- yilda ularning ulushi **81,9 %**ni tashkil etgan.

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



**Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi**  
 bu – sog'lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiya markazlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

## Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2021- y. yanvar-aprel**

**2022- y. yanvar-aprel**

**51,5  
mlrd so'm**

**Xizmatlar  
hajmi**

**63,1  
mlrd so'm**

**127,8 %**

**O'sish  
sur'ati**

**112,0 %**

**2,0 %**

**Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi**

**2,1 %**



**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

## Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-aprel oylarida)



2022- yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulush Urganch shahriga tegishli bo'lgan - 37,4 % (2021- yilda 39,2 %). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichi Tuproqqa'l'a tumanida kuzatilgan – 2,5 %.



# Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

**2022- yil yanvar-aprel**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-aprel oylarida)	Hajmi, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3 013,2</b>	<b>112,4</b>	<b>126,9</b>
<b>Urganch shahar</b>	<b>1 126,8</b>	<b>115,0</b>	<b>126,3</b>
<b>Xiva shahar</b>	<b>126,7</b>	<b>111,1</b>	<b>138,8</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Bog'ot</b>	<b>175,9</b>	<b>113,8</b>	<b>124,3</b>
<b>Gurlan</b>	<b>153,5</b>	<b>129,5</b>	<b>128,5</b>
<b>Qo'shko'pir</b>	<b>140,3</b>	<b>120,5</b>	<b>131,4</b>
<b>Urganch</b>	<b>234,8</b>	<b>100,5</b>	<b>122,2</b>
<b>Hazorasp</b>	<b>223,3</b>	<b>106,9</b>	<b>127,7</b>
<b>Tuproqqa'l'a</b>	<b>75,0</b>	<b>124,1</b>	<b>125,1</b>
<b>Xonqa</b>	<b>201,6</b>	<b>111,8</b>	<b>122,0</b>
<b>Xiva</b>	<b>144,5</b>	<b>111,3</b>	<b>132,9</b>
<b>Shovot</b>	<b>159,6</b>	<b>109,3</b>	<b>125,5</b>
<b>Yangiariq</b>	<b>135,4</b>	<b>112,4</b>	<b>130,6</b>
<b>Yangibozor</b>	<b>115,8</b>	<b>90,8</b>	<b>132,4</b>

*\* Shahar va tuman bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda.*

2022- yil yanvar-aprel

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

### Xizmatlar hajmi

1 563,3  
ming so'm

### Hajmning o'sishi

236,4 ming  
so'mga

110,6 %

### O'sish sur'ati



2022- yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 563,3 ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan o'sish sur'ati 110,6 %ni tashkil etdi.

### Taqqoslash

uchun:

2021- yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 326,9 ming so'mni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 62-224-65-16

Xorazm viloyatida xizmatlar sohasining  
rivojlanishi